



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 416 sahifa,  
27-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
<b>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	16
<b>Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon</b>	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов .....	19
<b>Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна</b>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
<b>Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi</b>	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi .....	29
<b>Sattarov Farrux Nuridinovich</b>	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish .....	35
<b>D. K. Ibadullayev</b>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati .....	41
<b>Isabekova Dilafruz Shermirzayevna</b>	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
<b>Юсупова Элеонора Фердинандовна</b>	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik .....	51
<b>Matyaqubova Nazira Hikmat qizi</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
<b>Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li</b>	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL) .....	60
<b>M. D. Boynazarova</b>	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки .....	63
<b>Нормуратов Абдулла Саппарович</b>	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
<b>Normuratov Abdulla Sapparovich</b>	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari .....	70
<b>Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi</b>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
<b>Omonova Charos Baxodir qizi</b>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
<b>Saidova Zulfizar Norbobo qizi</b>	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
<b>Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna</b>	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida .....	91
<b>Abdullayev Botir Jabbor o'g'li</b>	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
<b>Abdumannan Maxammatov</b>	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi” .....	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati .....	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi .....	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness .....	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati .....	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari .....	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi .....	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi .....	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri .....	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari .....	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari .....	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari .....	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari .....	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati .....	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish .....	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari .....	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari ..... 198  <b>Salomov Abdurasul Axmadovich</b></p> <p>Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi ..... 201  <b>Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaeva Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev</b></p> <p>Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari..... 205  <b>Sojida Safarova Saxadin qizi</b></p> <p>Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida..... 207  <b>Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi</b></p> <p>Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish ..... 210  <b>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</b></p> <p>Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов ..... 214  <b>Нурбаев Бахтиёр Шириневич</b></p> <p>Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari..... 217  <b>To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna</b></p> <p>Ta'lim jarayonida va talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ..... 223  <b>X. Xalilova, N. Niyazova</b></p> <p>Optimization of Periodontal Disease Treatment Tactics in Patients With Chronic Hepatitis C After Achieving a Sustained Virological Response ..... 227  <b>Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna</b></p> <p>Pathogenetic and Clinical Rationale for the Prevention and Management of Periodontal Diseases in Workers Within Dust-Hazardous Environments ..... 230  <b>Turumova Marjona Bakhodirovna</b></p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyati va kasbiy madaniyati ..... 233  <b>Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Soloyeva Rayhonoy Ravshanbek qizi</b></p> <p>Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan ijodiy muhitni tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslari ..... 236  <b>Sultanov Xaytboy Eraliyevich</b></p> <p>Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat orqali o'smirlarda huquqbuzarlik profilaktikasining pedagogik asoslari ..... 241  <b>Umarov Qobiljon</b></p> <p>Maktab o'quvchilari orasida kiberbulling profilaktikasi yo'llari ..... 245  <b>Jannazarova Juldizxan Aliiyar qizi</b></p> <p>Kimyo ta'limi jarayonida kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ..... 250  <b>Allaberdiyeva Zebinisobegim Ismoiljon qizi</b></p> <p>Universality in Phraseological Units in English, Dutch and Uzbek ..... 253  <b>Khaydarova Guzalkhon</b></p> <p>Texnologik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: universitet darajasida istiqbollor ..... 256  <b>Musurmonova Ma'mura Oman qizi, Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna</b></p> <p>Chet el va mahalliy tajribalarda muhandislik musobaqalari samaradorligi ..... 261  <b>N. Nomozova, A. Muxamadiyev</b></p> <p>Autizm spektri buzilishlarining klinik-pedagogik xususiyatlari va ularni korreksiyalashning ilmiy asoslari..... 267  <b>Polatova P. M., Polvonova Kishchan Ravshanovna</b></p> <p>Tenglamalar ildizlarini aniqlashda vatarlar usuli va python dasturiy modeli ..... 272  <b>Rizayeva Bahoroy Jahongir qizi</b></p> <p>Algebra fanini o'rganishda talabani xatolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish usullari ..... 277  <b>Zaxiriddinova Shahlo Zahiriddin qizi, Norboyeva E'zoza O'tabek qizi, Oqbutayeva Sumbula Normuhammad qizi</b></p> <p>Интегрированный подход как основа развития русской связной речи иноязычных студентов неязыковых специальностей ..... 280  <b>Бозорова Хулкар Одинакуловна</b></p>
-------------------------------------	---



Оптимизация трудовых отношений в системе общего среднего образования на основе HR-менеджмента: эмпирический анализ.....	284
<b>Турикова Лазокат Машрабовна</b>	
Pedagoglarning huquqiy maqomi hamda global kompetensiyalar bilan bog'liq muammo va yechimlar.....	296
<b>Javohir Baxtiyorovich Shukurov</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirishning kommunikativ yondashuv asoslari.....	305
<b>Holikulova Feruza Xasanovna</b>	
Talabalarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning agressiv xulq-atvorga ta'siri.....	309
<b>Tosheva Sayyora Raxmonqulovna</b>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	314
<b>Nurmatova Iroda Toxtasinovna, Qutlimuratova Dilnoza Oybek qizi</b>	
O'quv materiallarini didaktik prinsiplar asosida bayon qilishning nazariy-amaliy asoslari.....	318
<b>Turdiyeva Navruza Sheraliyevna</b>	
Raqamli va globallashtirilgan muhitda maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish.....	323
<b>Avazova Xidoyat Zafar qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asar tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish orqali o'quvchilar nutqini boyitish ("Bog'bon va nihol" rivoyati misolida).....	327
<b>Normurodova Nigora Abdusattorovna, Abduxalilova Mohinur To'raqul qizi</b>	
Qoraqalpog'iston cho'l yaylovlarning holatiga katta qumsichqonlar ta'sirini baholash.....	331
<b>Adilbayeva Genjexan</b>	
O'zbekiston zaminida uyg'onish - renessans hodisasining yuz berishi: shakllanishi, musulmon va insoniyat dunyosi taraqqiyotidagi o'rni.....	335
<b>Choriyev Mirjalol Baxtiyor o'g'li</b>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ekologik kompetentligini badiiy-loyihaviy faoliyat orqali rivojlantirish metodikasi.....	340
<b>Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik kompetensiyani rivojlantirish orqali orfoqrafik va orfoepik bilimlarni shakllantirish.....	344
<b>Mamasidikova Naima Toxirjon qizi</b>	
Talabalarining mustaqil o'qish va o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirishning metakognitiv aspektlari.....	348
<b>Mirsobitova Parvina Bahodir qizi</b>	
Sun'iy intellekt vositasida talabalarining axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari..	351
<b>Muminov Zokir Sharop o'g'li</b>	
Ta'lim muhitining o'quvchilarning emotsional holatiga ta'siri.....	354
<b>Nurmatov Nurhayot Nurziyat o'g'li, Otaqurbonbova Nigina Rustam qizi</b>	
STEAM yondashuvi asosida o'simliklar fiziologiyasi fanida o'quv mazmunini didaktik qayta tashkil etish xususiyatlari.....	358
<b>Xoliqulova Gulchehra Alimardon qizi</b>	
Особенности развития эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста.....	363
<b>Мирзаева Наргиза</b>	
Inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari.....	367
<b>Abdanbekova Nilufar Rixsiyevna</b>	
O'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari.....	370
<b>Ismailova Shaira Ferdausovna</b>	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	373
<b>Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi</b>	
Inkluziv ta'limda pedagoglarning mahorati va pedagogik innovatsiyalar.....	378
<b>Raxmonova Gullola Shavkatovna</b>	
The Impact of Collaborative Writing Activities on EFL University Students' Essay Writing Skills: A Classroom-Based Study.....	382
<b>Shovkiewa Munisa Shonazar kizi</b>	

CONTENTS

MUNDARIJA SOÐERJANIE

ChatGPT va generativ AI vositalarining o'quv jarayonidagi didaktik imkoniyatlari.....	386
<a href="#">Sotivoldiyev Shohruhmirzo Abdumalik o'g'li</a>	
O'qituvchi shaxsining pedagogik etikasi va kasbiy madaniyati.....	390
<a href="#">Sultonova Nargiza Nigmatovna</a>	
Raqamli transformatsiya sharoitida talabalarining media savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	393
<a href="#">Zaxiriddinova Shaxlo, Nurova Manzura, Murodova Fayoza</a>	
Talabalar matematik tafakkurini rivojlantirishda analizdan masalalar yechish strategiyalari .....	397
<a href="#">Zaxiriddinova Shaxlo, Tufliyeva Roziya, Ismatullayev Javohir</a>	
Роль социальной компетенции в процессе интенсивного когнитивного развития .....	402
<a href="#">З. Ф. Азизова</a>	
Роль научного знания в повышении качества образования .....	406
<a href="#">Сагатова Диёра Абдулазиз кизи</a>	
Методы использование информационных технологий в научном исследовании качества образования в ВУЗе.....	409
<a href="#">Уразова Марина Батыровна, Туленова Карима Жандаровна, Генжебаева Кундуз Саламат кизи</a>	
Академический стресс и формирование механизма "Самообвинения" у студентов .....	412
<a href="#">Хошимова Дилорам Анваровна, Немаджанова Наргиза</a>	

# BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA FONETIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH ORQALI ORFOGRAFIK VA ORFOEPIK BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH

Mamasidikova Naima Toxirjon qizi

Turan International University o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida fonetik bilimlarni berish orqali ularning orfografik hamda orfoepik bilim va ko'nikmalarini shakllantirish masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, alifbe, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash, ular asosida turli topshiriqlarni mustaqil ravishda bajara olish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning faolligini kuchaytirish va kutilgan natijalarga erishishda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda turli xil mashq va metodlarning o'rnini muhim ekanligi haqida batafsil fikr yuritilgan. Bundan tashqari, fonetik bilimlarning o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ham tahlil qilingan. O'quvchilarda to'g'ri talaffuz va yozuv ko'nikmalarini shakllantirishda tizimli yondashuvning zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, interaktiv usullar va didaktik o'yinlar orqali darslarni tashkil etish o'quvchilarning qiziqishini oshirishi va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** Fonetika, fonema, orfoografiya, orfoepiya, alliteratsiya, pedagogik texnologiya, nutq, bo'g'in, tovush.

**Abstract:** This article comprehensively discusses the issues of developing orthographic and orthoepic knowledge and skills in primary school students through providing phonetic knowledge in the educational process. Special attention is also given to developing students' ability to apply the knowledge acquired in alphabet, native language, and reading literacy lessons, as well as to independently complete various tasks based on that knowledge. The article elaborates on the significant role of modern innovative pedagogical technologies, as well as various exercises and methods, in increasing the effectiveness of education, enhancing students' activity, and achieving the expected results. In addition, the importance of phonetic knowledge in developing students' speech culture is analyzed. The necessity of a systematic approach to forming correct pronunciation and writing skills in students is substantiated. It is also emphasized that organizing lessons through interactive methods and didactic games helps increase students' interest and strengthens their knowledge.

**Key words:** Phonetics, phoneme, orthography, orthoepy, alliteration, pedagogical technology, speech, syllable, sound.

**Аннотация:** В данной статье подробно освещаются вопросы формирования орфографических и орфоэпических знаний и навыков у учащихся начальных классов посредством предоставления фонетических знаний в процессе обучения. Также особое внимание уделено развитию у учащихся умений применять полученные знания на уроках азбуки, родного языка и чтения, а также самостоятельно выполнять различные задания на их основе. В статье подробно рассматривается важная роль современных инновационных педагогических технологий, а также различных упражнений и методов в повышении эффективности обучения, активизации учащихся и достижении ожидаемых результатов. Кроме того, проанализировано значение фонетических знаний в развитии культуры речи учащихся. Обоснована необходимость системного подхода к формированию у учащихся навыков правильного произношения и письма. Также подчёркивается, что организация уроков с использованием интерактивных методов и дидактических игр способствует повышению интереса учащихся и закреплению знаний.

**Ключевые слова:** Фonetика, фонема, орфография, орфоэпия, аллитерация, педагогическая технология, речь, слог, звук.

## KIRISH

Hozirda yurtimizda yoshlarga o'zbek tilini mukammal o'rgatish davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotganini Prezidentimizning ushbu fikrlari orqali ko'rishimiz mumkin: "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Barchamizga yaxshi ayonki, ona tili – millat ma'naviyatining mustahkam poydevoridir. Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinai



hayoti bu uning milliy tili va adabiyotidir. Shu ma'noda dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallashni maqsad qilib qo'ygan har qaysi davlat, avvalo, o'z xalqining milliy tili va madaniyatini asrab-avaylashga, rivojlantirishga intiladi" [1].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nutq tovushlarining hosil bo'lish mexanizmini o'rganish 17-asrda boshlangan bo'lib, bu hol kar-soqovlarni o'qitish ehtiyojidan kelib chiqqan. Tilning tovush tomonini har jihatdan lingvistik nuqtai nazardan o'rganish birinchi marta nemis olimi E. Ziversning „Tovush fiziologiyasi asoslari“ [2] asarida kuzatiladi.

Rossiyada umumiy fonetikaning rivojiga I. A. Boduen de Kurtene va uning shogirdlari V. A. Bogoroditskiy hamda L. V. Shcherbalar o'z asarlari bilan muhim hissa qo'shdilar [3].

Fonetika tilning boshqa sohalari bilan bog'liq, chunki tovush, urg'u va ohangsiz bo'g'inlarsiz so'z, so'z birikmasi va gap bo'lmaydi. Shu tufayli fonetika leksika, morfologiya, sintaksis va stilistika bilan bog'liq til bosqichi deb qaraladi.

O'zbek tili fonetikasi ham chuqur o'rganilmoqda. O'zbek tilining tasviriy fonetikasini tadqiq qilishda V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, F. Abdullayev, A. G'ulomovlar; o'zbek tili fonetikasini 60-yillar oxiridan eksperimental o'rganishda A. Mahmudov va S. Otamirzayevalar; o'zbek tilining tarixiy fonetikasini o'rganishda G'. Abdurahmonov, A. Rustamov, Q. Mahmudov, H. Ne'matov, E. Umarovlarning xizmatlari katta [4, 12].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada fonetik kompetensiyani rivojlantirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim olish jarayonida fonetik bilim berish orqali orfografik va orfoepik bilimlarini shakllantirish usullari pedagogika, psixologiya, tilshunoslik hamda ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va o'qitish sohasidagi pedagogik tajribani umumlashtirish usuli asosida yoritildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Fonetik kompetensiya – bu umumiy atama bo'lib, u og'zaki nutqda tovushlar yoki fonemalarga oid bo'lgan ko'plab ko'nikmalar va tushunchalarni o'z ichiga oladi hamda bu tovushlarni tanib olish va tatbiq qila olish qobiliyatidir. Ushbu ko'nikmalarsiz kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qish muammolari paydo bo'lishi mumkin. Fonetik idrok etish ko'nikmalari oddiy elementlardan boshlanadi va bola har bir ko'nikmani o'zlashtirgani sayin tobora murakkablashib boradi.

Fonetik kompetensiyani boshlang'ich sinf o'quvchilarida rivojlantirishning birinchi qadamlaridan biri – bu bir-biriga paronim yoki oxiri bir xil harflar bilan tugaydigan so'zlarni aniqlash qobiliyatidir. Masalan, o'quvchidan ikki so'zning o'xshash tovushlarini aniqlashni so'rash yoki boshqa ma'lum so'z bilan paronim bo'lgan so'zni topishni so'rash mumkin. Tovushlar tarkibi o'xshash bo'lgan so'zlarni topish qobiliyatlarini mashq qilish uchun foydalanish mumkin bo'lgan ko'plab qiziqarli mashg'ulotlar mavjud. Masalan, o'quvchilardan tovushlar tarkibi o'xshash bo'lgan narsalarning rasmlarini chizishni, sinf yoki ularning uyi atrofidagi buyumlarni topishni yoki obyektlarni tovushlar tarkibi o'xshash bo'lgan so'zlar asosida guruhlariga ajratishni so'rash mumkin. Ushbu strategiyani o'rgatish uchun rasmiy kitoblardan yoki rasmiy ko'rgazmalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'qishni endigina boshlayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilari rasmiy ko'rgazmalarga tayanadilar. Rasmiy hikoyalar fonetik bilimlarni mashq qilish va yaxshilash uchun mukammal manbadir. Savod o'rgatish davridagi o'quvchilar rasmlardagi so'zlarni tovushlariga ko'ra saralashlari mumkin, 2-sinfdan boshlab esa o'quvchilar matnlar yordamida murakkabroq mashg'ulotlarni sinab ko'rishlari mumkin.

Shuni unutmashlik kerakki, barcha yondashuvlar va jarayonlar bolaning yoshi hamda qabul qilish darajasiga mos ravishda olib borilishi lozim. Fonetik kompetensiya boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhim ahamiyatga ega, zero ularning yaxshi kitobxon bo'lishlari uchun eng muhim omildir. Fonetik bilimlarni rivojlantirishning turli usullari mavjud bo'lib, ular, asosan, bolalar uchun qo'shiqlar, she'rlar, rasmiy kitoblar, o'yinlar hamda saralash va guruhlash kabi boshqa amaliy tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf 4 yilni tashkil etsa, shu davr davomida ushbu so'zlarga topshiriqlar jarayonida duch kelganda X va H tovushlarining farqli tomonlari ular ishtirok etgan so'zlarni ko'z xotirasi orqali o'quvchilarga qayta-qayta tushuntirilib, ko'nikma hosil qilinadi. Mavzularni mustahkamlash maqsadida 1–4-sinflarning 7 minutlik husnixat daqiqalarida rasmiy diktantlardan ham foydalanish tavsiya etiladi. Chunki rasmiy diktantlar o'quvchilarning yodida qoladi va ko'z xotirasida yaxshi saqlanishiga yordam beradi.

DTS asosidagi o'quv dasturiga muvofiq 1–4-sinflarda o'quvchilar fonetika bo'limi yuzasidan quyidagilarni bilishlari zarur. Fonetika va grafikaga oid: nutq tovushlari, unli va undosh tovushlar; jarangli va jarangsiz tovushlar; talaffuzda tushib qoladigan undoshlar; x va h tovushlarining talaffuzi; so'zdagi qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi; harf birikmalari; tutuq belgisi; bo'g'in, bo'g'inga bo'lish va bo'g'in ko'chirish kabilar o'rgatiladi[5].

Fonetik kompetensiyani savod o'rgatish davriga qanday tatbiq qilish mumkin?

**Fonetik birliklarni aniqlashga o'rgatish.** Bunda tovushlar miqdorini topish, bo'g'inlarga ajratish, tovush tarkibini tahlil qilish kabi fonologik ongni tarkib toptirish juda muhim. Har bir fonetik bilimni rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish uchun turli metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**Fonetik kompetensiyani rivojlantirishni o'qish va yozish bilan bog'lash.** O'quvchilarning fonetik ongini rivojlantirish uchun o'qish va yozish o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish katta ahamiyatga ega. Og'zaki tilda tovushlarni tanib olish va yozuvda tatbiq qilish imlo hamda umumiy o'qish ravonligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Fonetik ongni "qizdirish" mashqlaridan foydalanish. Har bir savodxonlik darsining boshida fonetik ongni qizdiruvchi qisqa mashg'ulotlarni qo'shish katta samara beradi. Bu mashg'ulotlar so'zlarni qarsak chalib bo'g'inlarga ajratish, qofiyali so'zlarni aniqlash yoki tovushlarni og'zaki aralashtirib so'z hosil qilish va segmentlarga ajratish kabi harakatlarni o'z ichiga oladi.

**Fonetik kompetensiyani birgalikda o'qish va yozishga integratsiyalash.** Birgalikda o'qish mashg'ulotlari davomida boshlang'ich tovushlarni aniqlashga yoki so'zlarni segmentlarga bo'lishga e'tibor qaratish orqali fonetik qobiliyatlarni shakllantirish mumkin. Birgalikda yozish mashg'ulotlari davomida tovushlarning harflarga qanday mos kelishini modellashtirish va muhokama qilish o'quvchilarga tovushlarni so'zlarga ajratish va birlashtirishga yordam beradi. Kichik guruhlariga fonetik tushunchalarni o'rgatish. O'quvchilarning bilimlaridan kelib chiqqan holda aniq fonetik ko'nikmalarni yo'naltirish uchun kichik guruhlarda o'qitish imkoniyatlarini yaratish lozim. Kichik guruhlarda fonetik ko'nikmalarni mustahkamlash va kengaytirish uchun amaliy mashqlar hamda interfaol o'yinlardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Bolalarni yozuvga o'rgatishda so'z tarkibidagi harflarning to'g'ri va aniq yozilishi hamda qo'shilishiga e'tibor qaratiladi. O'qituvchining savod o'rgatish davridagi darslarni to'g'ri tashkil etishi o'quvchilarning fonetik va grafik bilimlarni kelgusida puxta egallashlariga zamin yaratadi. O'qituvchining bu sohadagi yutuqlari uning dars o'tish usullari, mahorati va darsda qo'llaydigan didaktik materiallariga ko'p jihatdan bog'liqdir. Interfaol dars jarayonini tashkil etish o'quvchilarning dars davomida faollashuviga va ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlarining oshishiga sabab bo'ladi. O'qituvchi dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismini o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganilishini ta'minlaydi, so'ngra ular sinfda har tomonlama muhokama etiladi. Bu esa o'quvchilarning o'tilgan mavzuni puxta egallashlariga zamin yaratadi [6].

Darhaqiqat, o'quvchilar berilgan mashqlarga o'z munosabatini bildirishlari yoki savollar berishlari mumkin. Bolalarning so'z boyligi ularning til grammatikasini yaxshi bilishining isbotidir. Ammo grammatika haqida ongli tushunchani rivojlantirish uchun bolalarni turli matnlar kontekstida va ularni atrof-muhit bilan bog'lash orqali uning turli tomonlari bilan tanishtirish, ularning e'tiborini tilning turli xil jihatlariga qaratish kerak, shunda ular tilning nozik tomonlarini tushunishlari va o'z ona tilidan to'g'ri foydalanishlari mumkin. Til o'rganish jarayoni va muhit nuqtai nazaridan shuni yodda tutish kerakki, bir darajada amalga oshirilgan jarayonlar keyingi bosqichda darslar uchun ishlatilishi mumkin. Bu borada sinfi yoki darajasiga ko'ra qiziqarli va rang-barang bolalar adabiyoti alohida ahamiyatga ega.

Tinglash, gapirish, o'qish, yozish kabi til bilan bog'liq barcha qobiliyatlar o'zaro bog'liq va bir-birining rivojlanishiga yordam beradi. Shuning uchun ularni ajratilgan holda o'rgatish to'g'ri emas. Bu yerda o'zbek tili bilan bog'liq bo'lgan tilni o'zlashtirish nuqtalari o'zaro bog'liqligini va ularda bir nechta lingvistik qobiliyatlarning namoyon bo'lishini tushunish ham muhimdir.

Asarni tinglagandan yoki o'qib chiqqandan keyin uni chuqur muhokama qilish, o'z munosabatini bildirish va savollar berish o'qish qobiliyatiga, shuningdek, tinglash va gapirish qobiliyatiga ham bog'liq. Fikr-mulohaza, savol va javoblarni yozish orqali ham bildirish mumkin. Shunday qilib, til sinfida tinglash, gapirish, o'qish va yozish bir-biriga bog'langan. Bularning barchasini yodda tutgan holda, o'quv dasturlari asosida dars jarayonlarini tashkil etish o'qitish jarayoni va ta'lim bilan bog'liq yuqori natijalar ko'rsatadi. O'quv jarayonlarida dars rejalarini to'g'ri taqsimlash katta rol o'ynaydi. Tegishli o'quv jarayonlarisiz kerakli ta'lim natijalariga erishib bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z tilida, o'z tasavvurida va o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yozish erkinligiga ega bo'lganda, yozish mazmunli faoliyatga aylanadi. Bolalarga faqat doskadan, kitoblardan yoki o'qituvchi tomonidan yozilgan matnlarni nusxalash emas, balki o'z tili va uslubini rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar berilishi kerak. O'qish va yozishni o'rganishning yagona maqsadi bolalar faqat darsliklarnigina o'qish va darslikning turli boblarida berilgan savollarga javob yozishni o'rganishlari emas, balki uning maqsadi – ular kundalik hayotda bu savodxonlikdan foydalanishlari zarur [7].

O'qish va yozishni o'rganish jarayoni turli maqsadlar uchun o'qish va yozish usullarida farqlar mavjudligini ham o'z ichiga olishi kerak. Bizning o'qish uslubimiz ham o'qishdan maqsad nima ekanligiga bog'liq. Yozish kontekstida bizning o'quvchimiz kimligi, ya'ni kim uchun yozayotganimiz ham muhimdir. Agar jamiyat va ota-onalarga bir xil ma'lumot berilishi kerak bo'lsa, unda ota-onalar va jamiyat a'zolari ham uning o'quvchilari qatoriga kiradi. Har ikki holatda ham yozuv tarzimiz va tilimizda o'zgarishlar bo'lishi tabiiy.

Xuddi shunday, har xil turdagi materiallarni o'qish maqsadi o'qish usulini belgilaydi. Agar siz maktabning yillik faoliyati haqidagi ma'lumotni maktab e'lonlar taxtasida o'qishni istasangiz, unda sizning e'tiboringiz ba'zi



aniq nuqtalarga qaratiladi, masalan, ma'lumot qaysi sanada, qayerda tashkil etiladi, soat nechada va hokazo. Agar biz hikoyani o'qisak, uning qahramonlari va voqealari haqida chuqur fikr yuritimiz: agar biror narsa sodir bo'lgan bo'lsa, bu nima uchun sodir bo'ldi, hikoyada nima bor, agar voqea sodir bo'lmaganida hikoyaning yo'nalishi qanday bo'lar edi va hokazo. Bizning o'qishimiz va yozishimiz uchun juda ko'p bosqichlar mavjud va har bir bosqich o'z-o'zidan muhimdir. Shuning uchun ham o'quvchini ma'lum bir maqsad asosida o'qitishni va ushbu o'qilgan voqealikka nisbatan fikr yuritishni, berilgan savollarga to'laqonli javob berishni o'rgatishni qamrab olish maqsadga muvofiqdir.

## XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim olish jarayonida fonetik bilim berish orqali orfografik va orfoepik bilimlarini shakllantirish uchun yuqorida keltirilgan usullardan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Bolalar o'zlari bilan maktabga turli ko'nikmalar bilan keladi va ularning maktabga uydandan, oiladan hamda atrof-muhitdan olgan tajribalari juda muhim. Ularning ushbu lingvistik malakalari tilni o'rganish va o'rgatish jarayonida qo'llanilishi kerak. Maktabga birinchi marta kelgan bola so'zlarning ma'nosi va ularning ta'siri bilan tanishadi. Bolalarning o'z muhitida mavjud bo'lgan matnni o'qishi ularning tushunishiga va qiziqishini rivojlantirishga yordam beradi. Hech kimning o'rgatishi yoki majburlashi bilan emas, balki o'z tajribasi va ehtiyojlari asosida yaratilgan bilimlar orqali ular o'z qiziqishlariga ko'ra bilimlarini hech qanday cheklovlarsiz rivojlantirishlari mumkin. Boshlang'ich sinfda fonetik tahlil bilan bog'liq holda bolalarning turli xil tanish va notanish kontekstlardan to'g'ri foydalanishi muhim ahamiyatga ega.

O'qish, tinglash, yozish va gapirishning ushbu to'rtta jarayonida bolalar o'zlarining oldingi bilimlari yordamida ma'no yarata olishlari va aytilganlarning ma'nosini tushunishlari kerak. Bunday vaziyatda ko'p marta matnni o'qiyotganda, bir nuqtada fonetik tahlilda xatolik sezilganda, uni keyingi kontekst orqali tushunish uchun qayta o'qiladi. O'qishning bu takrorlanishi ma'no izlanishining dalili hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik kompetensiyaning xususiyatlarini o'rganish va uni takomillashtirish usullarini ishlab chiqish ularning fonetik kompetensiyasini rivojlantirishga tayyorlash sifatini oshiradi hamda talaffuz darajasini yuksaltirishga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
2. Goncharova N. L. O'quvchilarda tilning fonetik-fonologik kompetensiyasini shakllantirish: referat. dis. ... kand. ped. Sci. Stavropol, 2006-yil.
3. Golovach Yu. V. Til pedagogika universiteti kasbiy va fonetik kompetensiyasini shakllantirish darajasiga qo'yiladigan talablar // Chet tillari. 1995. № 1. B. 29-31.
4. Ne'matov H. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. T., 1994-yil.
5. Erg'oziyeva X. Boshlang'ich sinflarda fonetika bo'limini o'rgatilishi // Actual issues of primary education: problems, solutions and development prospects. 2024-04-26.
6. Mamasidikova N. Boshlang'ich sinflarda fonetik kompetensiyaning nazariy asoslarini shakllantirish usullari // Yangi O'zbekistonning taraqqiyot davrida fan, ta'lim va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning dolzarb masalalari. Namangan, 2024-yil. <https://tiu-edu.uz/en/blog/2024/5/30/international-conference-2/>
7. Qosimova K., Matchonova S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyeva Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Nosir, 2009-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.